TALABALARDA IJTIMOIY MUNOSABATLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI: XUSUSIY OLIY TA’LIM MUASSASALARI MISOLIDA

Abdurazoqov Yusufbek Turg’un o’g’li
Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21923797

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va shaxslararo munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi psixologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. Oliy ta’lim jarayonida talabaning yangi ijtimoiy muhitga moslashishi, guruhdagi munosabatlarni shakllantirishi, muloqotga kirishishi va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi uning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ijtimoiy-psixologik moslashuvning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida kommunikativ faollik, emotsional barqarorlik, ijtimoiy kompetentlik, o‘ziga bo‘lgan ishonch va guruhga mansublik hissi ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-psixologik moslashuv, shaxslararo munosabatlar, talaba, kommunikativlik, ijtimoiy kompetentlik, emotsional barqarorlik, ijtimoiy faollik, guruhga moslashuv, muloqot, psixologik muhit, o‘zaro hamkorlik, shaxsiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье с психологической точки зрения анализируется взаимосвязь социально-психологической адаптации студентов и их межличностных отношений. В процессе получения высшего образования адаптация студента к новой социальной среде, формирование взаимоотношений в группе, вступление в коммуникацию и участие в коллективной деятельности имеют важное значение для его личностного и социального развития. В исследовании в качестве основных показателей социально-психологической адаптации рассматриваются коммуникативная активность, эмоциональная устойчивость, социальная компетентность, уверенность в себе и чувство принадлежности к группе.
Ключевые слова: Социально-психологическая адаптация, межличностные отношения, студент, коммуникативность, социальная компетентность, эмоциональная устойчивость, социальная активность, адаптация к группе, общение, психологическая среда, взаимное сотрудничество, личностное развитие.

Abstract: This article analyzes the relationship between students’ socio-psychological adaptation and interpersonal relationships from a psychological perspective. In the process of higher education, students’ adaptation to a new social environment, the formation of relationships within the group, engagement in communication, and participation in collective activities are of significant importance for their personal and social development. The study considers communicative activity, emotional stability, social competence, self-confidence, and a sense of belonging to the group as the main indicators of socio-psychological adaptation.
Keywords: Socio-psychological adaptation, interpersonal relationships, student, communicativeness, social competence, emotional stability, social activity, group adaptation, communication, psychological environment, mutual cooperation, personal development.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning nafaqat akademik bilimlarini rivojlantirish, balki ularning ijtimoiy-psixologik jihatdan shakllanishi, yangi ijtimoiy

muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi va samarali shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, ushbu davrda insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy mavqei, kommunikativ ko‘nikmalari hamda boshqa insonlar bilan munosabatga kirishish xususiyatlari faol ravishda shakllanadi.[1] Ayniqsa, oliy ta’lim muassasasiga yangi kirib kelgan talabalar uchun yangi ijtimoiy muhit, yangi guruh, ta’lim talablari va turli shaxslar bilan muloqot qilish zarurati muayyan psixologik moslashuv jarayonini talab etadi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv talabaning ta’lim muassasasi, akademik guruh, o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan munosabatlarini samarali yo‘lga qo‘yishi, mavjud ijtimoiy me’yor va talablarga moslashishi, o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyon eta olishi hamda yangi muhitda psixologik barqarorlikni saqlashi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli kechishi talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, kommunikativ qobiliyatlari, emotsional barqarorligi, ijtimoiy kompetentligi va guruhga mansublik hissi kabi psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.[2]Shu sababli talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini o‘rganish ularning ta’lim jarayonidagi faolligi va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va shaxslararo munosabatlari psixologiya fanida keng o‘rganilgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi, guruhdagi xulq-atvori, muloqot jarayoni, ijtimoiy mavqei va boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlarini tushuntirish bilan bevosita bog‘liqdir. Psixologik adabiyotlarda moslashuv tushunchasi shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida izohlanib, unda insonning mavjud sharoitlarga moslashishi bilan bir qatorda, muhitga faol ta’sir ko‘rsatishi ham muhim jihat sifatida qaraladi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv masalasining nazariy asoslari xorijiy psixologiya vakillarining tadqiqotlarida keng yoritilgan. Jumladan, G. Selye stress va moslashuv jarayonlari o‘rtasidagi munosabatni tadqiq etib, insonning yangi va murakkab sharoitlarga javoban yuzaga keladigan psixofiziologik reaksiyalarini izohlab bergan. J. Piaget esa shaxsning muhit bilan o‘zaro munosabatida assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlarining ahamiyatini ko‘rsatgan. Ushbu yondashuvlar shaxsning yangi sharoitga moslashuvi passiv jarayon emas, balki faol psixologik qayta tashkil etilish bilan bog‘liqligini asoslashga imkon beradi. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida shaxsning rivojlanishi turli ijtimoiy munosabatlar va hayotiy vaziyatlar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Talabalik davri shaxsning mustaqilligi, ijtimoiy identifikatsiyasi, yaqin munosabatlarni shakllantirishi va jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilashi bilan xarakterlanadi. Shu sababli talabalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi ularning shaxsiy rivojlanish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxslararo munosabatlarni o‘rganishda esa J. Moreno tomonidan ishlab chiqilgan sotsiometrik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv guruh a’zolari o‘rtasidagi ijobiy va salbiy tanlovlar, shaxsning guruhdagi mavqei, o‘zaro yaqinlik va ijtimoiy aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Talabalar guruhida sotsiometrik maqomning shakllanishi ularning guruhga moslashuvi va o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his qilishiga ta’sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Muloqot va shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari B.G. Ananyev, A.A. Bodalev, B.F. Lomov kabi olimlarning ilmiy qarashlarida ham muhim o‘rin egallaydi. B.F. Lomov muloqotni inson faoliyatining muhim shakllaridan biri sifatida ko‘rib, uning shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni tashkil etishdagi rolini ta’kidlaydi. A.A. Bodalev tadqiqotlarida esa insonning boshqa shaxsni idrok etishi, baholashi va unga nisbatan munosabatining shakllanish mexanizmlariga e’tibor qaratilgan. Mazkur nazariy qarashlar talabalarning kommunikativ faolligi va

shaxslararo munosabatlarini tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek psixologiya maktabi vakillarining tadqiqotlarida ham shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati, muloqot, jamoa va shaxs rivojlanishi masalalariga katta e’tibor qaratilgan. E.G‘. G‘oziyevning psixologiya, tafakkur, shaxs va muloqotga oid ilmiy qarashlarida insonning ijtimoiy muhit bilan munosabati va psixik jarayonlarning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. M.G. Davletshin tadqiqotlarida shaxsning psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari, muloqot jarayoni va ta’lim faoliyati bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan. Bu ilmiy qarashlar talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi va tengdoshlari bilan munosabatlarini o‘rganishda nazariy asos vazifasini bajaradi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi kommunikativ kompetentlik, emotsional intellekt, o‘z-o‘zini baholash, empatiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va guruhga mansublik hissi kabi omillar bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Ayniqsa, talabaning o‘z tengdoshlari bilan samarali muloqot qila olishi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishi, boshqalarning hissiy holatini tushunishi va o‘z emotsiyalarini boshqara olishi uning ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtiruvchi muhim psixologik resurslar sifatida qaraladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-psixologik moslashuv va shaxslararo munosabatlar o‘zaro chambarchas bog‘langan hodisalardir. Talabaning guruhdagi ijtimoiy mavqei, muloqotga kirishish qobiliyati, o‘zaro hamkorlikka tayyorligi va emotsional barqarorligi uning moslashuv darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijobiy shaxslararo munosabatlarning mavjudligi talabaning o‘zini xavfsiz va qabul qilingan his qilishiga, ijtimoiy faolligining oshishiga hamda ta’lim muhitiga tezroq moslashishiga yordam beradi. Mavjud ilmiy adabiyotlar talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va shaxslararo munosabatlarini alohida-alohida o‘rganish bilan bir qatorda, ularning o‘zaro ta’sirini kompleks ravishda tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy oliy ta’lim sharoitida talabalarning individual-psixologik xususiyatlari, guruhdagi ijtimoiy mavqei, kommunikativ imkoniyatlari va emotsional holatini hisobga olgan holda moslashuv jarayonini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud nazariy qarashlarni empirik ma’lumotlar bilan boyitish, ijtimoiy-psixologik moslashuv va shaxslararo munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda oliy ta’lim amaliyoti uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va shaxslararo munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqotning metodologik asosini shaxs va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri, faoliyat va muloqotning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati hamda ijtimoiy-psixologik moslashuvning tizimli xususiyatlari haqidagi nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqotda talabaning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi faqat tashqi sharoitlarga ko‘nikish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning yangi ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro munosabatga kirishishi, o‘z xulq-atvorini mavjud talablar asosida tartibga solishi va guruhdagi munosabatlarda o‘z o‘rnini belgilashi bilan bog‘liq kompleks psixologik jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Nazariy metodlar tarkibiga ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari kiritildi. Ushbu metodlar yordamida ijtimoiy-psixologik moslashuv, shaxslararo munosabatlar, kommunikativlik, ijtimoiy kompetentlik va guruhga moslashuv tushunchalarining mazmun-mohiyati o‘rganildi hamda mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtirildi. Empirik tadqiqotda psixodiagnostik metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini aniqlash uchun A.K. Osnitskiy va K. Rojers yondashuvlariga asoslangan “Ijtimoiy-psixologik moslashuv” diagnostik yo‘nalishidagi metodikalar, shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini aniqlash uchun esa T. Liri

tomonidan ishlab chiqilgan shaxslararo munosabatlar diagnostikasi metodikasidan foydalanish mumkin. Mazkur metodikalar orqali talabalarning moslashuv darajasi, o‘zini qabul qilishi, boshqalarni qabul qilishi, emotsional qulayligi, kommunikativ xususiyatlari hamda shaxslararo munosabatlaridagi asosiy tendensiyalarni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Tadqiqotda kuzatish va suhbat metodlaridan ham foydalanish talabalarning tabiiy ta’lim muhitidagi xulq-atvorini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Kuzatish jarayonida talabalarning guruhdagi faolligi, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi, nizoli vaziyatlarga munosabati va jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki qayd etiladi. Suhbat metodi orqali esa talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashish jarayoni, guruhdagi munosabatlardan qoniqishi, muloqotdagi qiyinchiliklari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni his etish darajasi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar olinadi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida miqdoriy va sifat tahlili usullaridan kompleks foydalanish nazarda tutiladi. Olingan ma’lumotlar statistik jihatdan qayta ishlanib, ijtimoiy-psixologik moslashuv ko‘rsatkichlari bilan shaxslararo munosabatlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil yordamida aniqlanadi. Zarur hollarda talabalarning moslashuv darajasi yuqori, o‘rta va past guruhlarga ajratilib, ular o‘rtasidagi psixologik ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlil qilinadi. Statistik tahlil natijalari tadqiqot gipotezasining asoslanganligini baholash va o‘zaro bog‘liqlikning yo‘nalishi hamda kuchini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot ishtirokchilarini tanlashda talabalarning ixtiyoriy ishtiroki, tadqiqot maqsadi va tartibi haqida oldindan ma’lumot berish, olingan ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash kabi etik tamoyillarga rioya qilinadi. Tadqiqotning asosiy bosqichlari muammoni nazariy jihatdan o‘rganish, diagnostik vositalarni tanlash, empirik ma’lumotlarni yig‘ish, natijalarni statistik va sifat jihatdan tahlil qilish hamda umumlashtirilgan xulosalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, tanlangan metodologik yondashuv talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va shaxslararo munosabatlarini kompleks o‘rganish, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni empirik jihatdan aniqlash hamda oliy ta’lim muhitida talabalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan psixologik chora-tadbirlarni ilmiy asoslash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi hamda shaxslararo munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga asosiy e’tibor qaratildi. Olingan nazariy va empirik ma’lumotlarning tahlili talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi ularning guruhdagi shaxslararo munosabatlari, kommunikativ faolligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy kompetentligi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Talabaning yangi ijtimoiy muhitni qabul qilishi, guruh a’zolari bilan muloqot o‘rnatishi va jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishi uning moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga xizmat qiluvchi muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Moslashuv darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda yangi ijtimoiy muhitni qabul qilish, tengdoshlari bilan aloqa o‘rnatish, guruh faoliyatida ishtirok etish va turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘z xulq-atvorini boshqarish qobiliyatlari nisbatan yaxshi rivojlanganligi kuzatiladi. Bunday talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalarning fikrlarini tinglash, hamkorlik qilish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni konstruktiv tarzda hal etishga ko‘proq moyil bo‘ladilar. O‘rta darajadagi ijtimoiy-psixologik moslashuvga ega talabalarda yangi muhitga ko‘nikish jarayoni nisbatan barqaror kechishi bilan birga, ayrim ijtimoiy vaziyatlarda psixologik qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Jumladan, yangi guruhga kirishish, notanish shaxslar bilan muloqot qilish, o‘z fikrini ochiq ifodalash yoki guruhdagi faol ijtimoiy mavqeni egallashda ayrim to‘siqlar mavjud bo‘lishi ehtimoli yuqori. Bunday holatlarda talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, kommunikativ ko‘nikmalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Moslashuv darajasi past bo‘lgan talabalarda esa ijtimoiy muhitni qabul

qilishda qiyinchiliklar, muloqotdan qochish, guruh faoliyatida passiv ishtirok etish, o‘ziga ishonchsizlik va emotsional zo‘riqish kabi holatlar namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday talabalar o‘z tengdoshlari bilan yaqin munosabatlarni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishi va o‘zini guruhning to‘laqonli a’zosi sifatida his qilmasligi mumkin. Natijada ularning ta’lim jarayonidagi ijtimoiy faolligi ham pasayishi ehtimoli mavjud.

Shaxslararo munosabatlar ko‘rsatkichlarining tahlili esa talabalarning guruhdagi munosabatlari asosan o‘zaro hamkorlik, muloqot, ishonch, hurmat va emotsional yaqinlik kabi omillar asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Ijobiy shaxslararo munosabatlar rivojlangan talabalarda guruhga mansublik hissi yuqori bo‘lib, ular jamoaviy topshiriqlarni bajarishda faolroq ishtirok etadilar. Shuningdek, bunday talabalar tengdoshlari bilan o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash munosabatlarini shakllantirishga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, ijtimoiy-psixologik moslashuv va shaxslararo munosabatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlash mumkin. Talabaning guruhdagi ijtimoiy munosabatlari qanchalik ijobiy va barqaror bo‘lsa, uning yangi ta’lim muhitiga moslashishi ham shunchalik samarali kechadi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli moslashgan talaba o‘z navbatida tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirish uchun ko‘proq psixologik imkoniyatga ega bo‘ladi. Demak, mazkur ikki jarayon bir-birini o‘zaro mustahkamlovchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda kommunikativlik ham muhim omil sifatida ajratib ko‘rsatildi. Muloqotga kirishish qobiliyati yuqori bo‘lgan talabalar guruhdagi ijtimoiy aloqalarni tezroq shakllantirishi, o‘z ehtiyoj va fikrlarini aniq ifodalashi hamda boshqa talabalarning pozitsiyasini tushunishi bilan ajralib turadi. Kommunikativ qobiliyatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi esa ijtimoiy izolyatsiya, o‘zaro tushunmovchilik va guruhga moslashishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Emotsional barqarorlik ham talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Emotsional jihatdan barqaror talabalar nizoli yoki stressli vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini nazorat qila olish, vaziyatni xolis baholash va konstruktiv muloqotni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning shaxslararo munosabatlarida barqarorlikni ta’minlaydi. Aksincha, emotsional beqarorlik holatlarida kichik kelishmovchiliklarning ham kuchli salbiy kechinmalarni yuzaga keltirishi va munosabatlarning murakkablashishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, guruhga mansublik hissi talabalarning ijtimoiy moslashuvini belgilovchi muhim psixologik ko‘rsatkichlardan biri ekanligi aniqlandi. O‘zini guruhning muhim va qabul qilingan a’zosi sifatida his qilgan talaba jamoaviy faoliyatda faolroq qatnashadi, tengdoshlari bilan yaqinroq munosabat o‘rnatadi va ta’lim muhitiga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi. Guruh tomonidan qo‘llab-quvvatlanish esa talabaning psixologik xavfsizlik hissini kuchaytirib, moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini faqat individual psixologik xususiyatlar bilan izohlash yetarli emas. Mazkur jarayonda guruhning psixologik muhiti, shaxslararo munosabatlarning sifati, kommunikativ imkoniyatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro hamkorlik darajasi ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning moslashuvini ta’minlashga qaratilgan psixologik ishlar individual maslahat bilan cheklanmasdan, guruhiy treninglar, kommunikativ mashg‘ulotlar va jamoaviy faoliyatlarni ham qamrab olishi maqsadga muvofiqdir. Natijalar asosida aytish mumkinki, talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va shaxslararo munosabatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kompleks psixologik jarayonlardir. Sog‘lom shaxslararo munosabatlar talabaning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirsa, muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv esa o‘z navbatida ijobiy kommunikativ va shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Mazkur xulosa oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlarni takomillashtirish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi oliy ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning shaxsiy rivojlanishi, ta’lim faoliyati va guruhdagi shaxslararo munosabatlarida katta ahamiyatga ega. Talabaning yangi ijtimoiy muhitga moslashishi, tengdoshlari bilan samarali muloqot qilishi, guruh faoliyatida ishtirok etishi va o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his qilishi uning psixologik barqarorligini ta’minlaydi. Shu bois, talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va shaxslararo munosabatlarini rivojlantirish zarur. Bunda:

1. Talabalar uchun ijtimoiy-psixologik moslashuv treninglarini tashkil etish.
2. Talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish.
3. Guruhlarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish.
4. Talabalarning o‘z-o‘zini anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlash.
5. Oliy ta’lim muassasasida psixologik maslahat va diagnostika xizmatlarini kengaytirish.
6. Talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy faollikni kuchaytirish zarur bo‘ladi.

Talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini qo‘llab-quvvatlash va ijobiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirish oliy ta’lim muassasasining muhim vazifalaridan biridir. Talaba, guruh, pedagog va psixologning hamkorlikdagi faoliyati sog‘lom psixologik muhitni yaratish, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. G‘oziyev, E.G‘. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 544 b.
2. Davletshin, M.G., Do‘stmuhamedova, Sh.A., Mavlonov, M.M., To‘ychiyeva, S.M. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: TDPU, 2004. – 200 b.
3. Karimova, V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b.
4. Andreeva, G.M. Социальная психология. – M.: Аспект Пресс, 2001. – 384 с.
5. Bodalev, A.A. Психология общения. – M.: Издательство «Институт практической психологии», 1996. – 256 с.
6. Lomov, B.F. Методологические и теоретические проблемы психологии. – M.: Наука, 1984. – 444 с.
7. Moreno, J.L. Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy and Sociodrama. – New York: Beacon House, 1953. – 714 p.
8. Rogers, C.R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. – 420 p.
9. Erikson, E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1968. – 336 p.
10. Selye, H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976. – 530 p.